

## **INSONLAR TEMPERAMENTINING OZIGA XOS HUSUSIYATLARI**

**Akbarova Barchinoy Baqiyevna**  
**Andijon davlat universiteti**

**Annotatsiya:** Qonni va boshqa genlarni haqiqiy funksiyalari aniqlangandan keyin temperamentni tabiatini boshqa yo’llar bilan tushuntirishga harakatlar boshlanadi. XX asrning boshlarida shifokorlar orasida temperamentni tanani anatomik tuzilishi bilan bog’laganlar ham bo’ldi. Ularni aytishicha to’ladan kelgan odamlar oq ko’ngil ozg’in odamlar esa jaxldor va ziqna bo’ladi.

Haqiqitdan ham ko’p xollarda xushchaqchaq insonlar to’ladan kelgan, ta’sirchan, sovuqqon insonlar esa ozg’in bo’ladi. Biroq buni teskarisi ham bo’lishi mumkin. Temperament orasida bog’liqlik bor deyishga yetarli asos yo’q.

**Kalit so’zlari:** Qon, haqiqiy, odam, xushchaqchaq, laboratoriya, shartli, refleks, kuchi, so’lak.

**Abstract:** After determining the true functions of blood and other genes, attempts to explain the nature of temperament in other ways begin. At the beginning of the 20th century, among doctors, there were those who connected temperament with the anatomical structure of the body. They say that rich people are angry and stingy.

In fact, in most cases, cheerful people are plump, and impressionable, cold-hearted people are thin. However, it can also be the opposite. There is no sufficient reason to say that there is a connection between temperament.

**Key words:** Blood, real, human, cheerful, laboratory, conditional, reflex, strength, saliva.

**Аннотация:** После определения истинных функций крови и других генов начинаются попытки объяснить природу темперамента другими способами. В начале 20 века среди врачей были те, кто связывал темперамент с анатомическим строением тела. Говорят, что богатые люди злы и скупы.

На самом деле в большинстве случаев веселые люди — полные, впечатлительные, бессердечные — худые. Однако может быть и наоборот. Нет достаточных оснований говорить о наличии связи между темпераментом.

**Ключевые слова:** Кровь, настоящая, человеческая, веселая, лабораторная, условная, рефлекс, сила, слюна.

Nerv faoliyati organizmning boshqa ko’rsatkichlari kabi shaxsiy bo’ladi. Farqlar asosan irsiy hisoblanadi. Bir xil sharoitda har xil odamlar va hayvonlar o’zlarini turlicha tutadilar. Bunga nerv tiziming xususiyatlari va hayotiy tajribasi sabab bo’ladi.

Qadimgi dunyoning buyuk tabibi Gipokrat xulq-atvorni shaxsiy xususiyatlarini tananing hayotiy shiralarni miqdori bilan tushuntirdi. Hayotiy shiralarga organizmdagi qon,shilmshiq va o’tni olishgan. Gipokrakt qo’llagan temperament atamasi hozirgi kungacha foydalanilmoqda. Gipokrat tomonidan o’tkazilgan ko’plab kuzatishlar natijasida to’rtta temperament aniqlangan: sangvinik; flegmatik; xolerik; melanxolik; Gippokratni ta’rificha “issiq qon” ko’p bo’lsa, sangvinik temperameniga xos bo’ladi. Sangvinik temperamentining o’ziga xos xususiyatlari energiyali, jasur, matonatli va qatiyatli. Agar ‘issiq qon’ ortiqcha shilimshik bilan sovusa flegmatik temperamenti nomoyon bo’ladi. Bunday tipdagi odamlar sovuq qon, shoshilmaydigan bo’ladilar. “O’t” xolerik temperamentini belgilaydi. Bu

temperament soxiblari qiziqqon, jaxldor va jizzaki hisoblanadi. Agar organizmda “qora o’t” ko’p bo’lsa melankolik temperamenti nomoyon bo’lib, ular har doim xar narsadan norozi qo’rqoq sifatlarini namoyon qiladi.

Qonni va boshqa genlarni xaqiqiy funksiyalari aniqlangandan keyin temperamentni tabiatini boshqa yo’llar bilan tushuntirshga harakatlar boshlanadi. XX asrning boshlarida shifokorlar orasida temperamentni tanani anatomik tuzilishi bilan bog’laganlar ham bo’ldi. Ularni aytishicha to’ladan kelgan odamlar oq ko’ngil ozg’in odamlar esa jaxldor va ziqna bo’ladi.

Xaqiqitdan ham ko’p xollarda xushchaqchaq insonlar to’ladan kelgan, ta’sirchan, sovuqqon insonlar esa ozg’in bo’ladi. Biroq buni teskarisi ham bo’lishi mumkin. Temperament orasida bog’liqlik bor deyishga yetarli asos yo’q.

Temperamentning xaqiqiy tabiati I.P.Pavlov tomonidan oliy nerv faoliyati ta’limoti orqali ochib berilgan. Tajribalar va kuzatishlar natijasida shu narsa ma’lum bo’ldiki, temperament miyyani oliy bo’limlarida kuzatish va tormozlanish jarayonlarini ketishidagi shaxsiy farqlari bilan tushuntiriladi.

I.P.Pavlov juda ko’p itlarda laboratoriyada tajriba o’tazib, hamma itlar tajribada bir xil ishlamaganiga e’tibor qaratgan. Ayrim itlarda shartli reflaekslar juda tez mustaxkam xosil bo’ladi. Boshqalarida esa shartli reflekslarni hosil bo’lishi qiyin bo’lib ular ham uncha mustahkam bo’lmaydi. Shartli reflekslarni xosil bo’lishdagi bunday farq mustahkam vaqtinchalik bog’larni xosil qilish bilan tushuntiriladi. Shunday qilib oliy nerv faoliyatini tipini belgilashda qo’zg’alish jarayonini kuchi va ko’rsatkichi aniqlanadi.

Keyingi tajribalarda qo’zg’alish jarayonini kuchi taxminan bir xil itlar olinsa ham shartli refleks faoliyatida shaxsiy farqlar aniqlandi. Shartli qo’zg’atuvchilarni farqlash zarur bo’lgan holatda itlarni bir birida farqi aniq ko’rinardi. Ikkita itni olib metronomni daqiqasiga 60 ta urishiga shartli so’lak oqish refleksini xosil qilinganda, xosil bo’lish tezligi va mustaxkamligida farq kuzatilmagan taqdirda ham metronomni daqiqasiga 120 ta urishiga tormozlanish reaksiyasi bitta itda juda tez yuzaga kelsa ikkinchi itda bu reaksiyani olish juda qiyin yoki mumkin bo’lmaydi. Bunday xolat shartli tormozlanish kuchi bir xil emasligini ko’rsatadi. Shunga ko’ra oliy nerv faoliyatini tiplarini aniqlashda tormozlanish jarayonini kuchi ko’rsatkichi aniqlanadi.

Biroq qo’zg’alish va tormozlanish jarayonlari kuchi bir xil itlar bilan tajriba o’tkazish davomida bir jarayondan ikkinchisiga o’tish ya’ni qo’zg’atuvchi shartli signalni tormozlovchi shartli signalga aylantirish yoki aksinchasida shaxsiy farqlar mavjudligi aniqlandi. Shu tajribalardan shu narsa ma’lum bo’ldiki itlarda qo’zg’alish jarayonlarini harakatchanligida farqlar mavjud ekan. Shunga ko’ra oliy nerv faoliyatini tiplarga ajratishni uchinchi ko’rsatkichi nerv jarayonlarini xarakatchanligi aniqlandi. Shunday qilib itlarni shartli refleks faoliyatini xususiyatlarini farqi xar bir induvidni qo’zg’atish va tormozlanish jarayonlarini kuchi va xarakatchanligidagi farqlari bilan izohlanadi. Ammo xuq-atvorni belgilovchi oxirgi natija qo’zg’atish va tormozlanish jarayonlarini absalyut kuchi bilan emas, balki ularning o’zaro munosabati bilan belgilanadi. Shu sababli tormozlanish jarayonini absolyut kuchiga qaraganda tiplarni aniqlashda taqqoslovchi kuchi haqida ya’ni tormozlanish jarayonini kuchini qo’zg’atishga nisbatan foydalaniladi. Shu sababli oliy nerv faoliyati jarayonlarini ketishini individual farqlari uchta ko’rsatkichlari: kuchi, muvozanati, va xarakatchanligi bilan baxolanadi. Shunga ko’ra po’stloqdagi jarayonlar kuchli yoki kuchsiz muvozanatlashgan yoki muvozanatlashmagan va xarakatchan yoki inert bo’ladi.

Turli xil xususiyatlardan kuchli va kuchsiz, muvozanatlashgan va muvozanatlashmagan, xarakatchan va inert nerv jarayonlaridan tabiatda juda ko’p kombinatsiyalar shakllanishi mumkin.

Shulardan asosan to’rtta aniq kombinatsiyalar ko’zga tashalanadi.

1. Kuchli, muvozatlashgan, harakatchan tip.
2. Kuchli, muvozanatlashgan inert tip.
3. Kuchli muvozanatlashmagan tip.
4. Kuchsiz tip.

1. Birinchi tip vakillarida nerv jarayonlari kuchli, muvozanatlashgan va harakatchan bo’lganligi uchun, I.P.Pavlov. “sergak” tip deb nomlagan.

Bu tip sangvinik temperamentiga to’g’ri keladi. Laboratoriya tajribalarida shartli reflekslar oson va mustaxkam xosil bo’ladi. O’xshash signallarni tez farqlaydi, qo’zg’atuvchi va tormozlovchi signalarni oson almashtiradi.

Tabiatda bunday xayvonlar xulq-atvorida kurashda chidamlilik va faollik (kuch), o’ljani poylab yotganda toqatlilik(muvozanat) va sharoit o’zgarishiga ko’ra o’zini hayotiy malakalarini almashtirish (harakatchanlik) belgilari nomoyon bo’ladi.

“Serg’ayrat” odami harakterida qiyinchiliklarni chidam bilan yengish (kuch), o’zini boshqarish (muvozanat) va kerak bo’lsa o’rganib qolgan odatlarini o’zgartirish (harakatchanlik) sifatlari ko’rinib turadi. Bunday odamlar juda mehnatkash, maqsadga tomon intiluvchan bo’lib hayotda uchraydigan o’zgarishlarga oson ko’nikib yangi sharoitga moslashuvchan bo’lishadi.

2. Nerv jarayonlari kuchli, muvozanatlashgan, biroq inert induvidlarni I.P.Pavlov “tinch” tip deb atagan.

Bu flegmatik temperamentiga xos belgilar xisoblanadi.

Laboratoriya tajribalarida xayvonlarda shartli reflekslar tez va mustaxkam xosil bo’ladi. O’xshash signallar oson farqlanadi, ammo shartli qo’zg’atuvchilarni mazmuni o’zgartirish juda qiyin kechadi. Flegmatik odami harakterida doimo shoshilmaslik sifati ko’rinib turadi. Ularda ishchanlik va “chegarani his qilish” sifatlari bilan birga, biror qarorga yengillik bilan keladi. Bunday odamlar har qanday holatda ham bosliqlik bilan harakat qiladilar, notanish odami bilan sekin tanishadi, tanishib yaqinlashsa eng ishonchli do’st bo’ladi.

3. Nerv jarayonlari kuchi qoniqarli, biroq muvozanatlashmagan induvidlarni I.P.Pavlov “o’zini to’xtatolmaydigan tip deb nomladi. Gippokrat ta’rifi bo’yicha bunday insonlar xolerik tipini ifodalaydi. Nerv jarayonlarini xarakatchanligi haqida hech narsa deb bo’lmaydi. Muvozanatlashmaganlik qo’zg’alish jarayonini tormozlanish jarayonidan ustun turishi bilan ko’rinadi. Laboratoriya tajribalarida shartli reflekslar tez va mustaxkam xosil bo’ladi, biroq farqlash bunday itlada juda sekin shakllanadi. Bu tipdagi odamlar biror ishni berilib juda kata hajmda bajarsalar, so’ng boshqa bir ishga ham shunday beriladi va o’lchovni bilmaydi. Odamlar bilan muomalada oddiy bir xolat unda kuchli g’azablanishni keltirib chiqarib, ko’pchilikni noo’rin hafa qiladi va oqibatda o’zi bundan afsuslanadi.

4. Nerv jarayonlarini kuchsizligi postloq hujayralarini xaddan tashqari tormozlanish xolatiga tez o’tishini I.P.Pavlov “kuchsiz” tip deb nomladi. Gippokrat qarashlari bo’yicha esa bu melanxolik temperamentini ifodalaydi. Bunday itlarda shartli reflekslarni rivojlanishi va mustaxkamligi juda sust bo’ladi. Shartli qo’zg’atuvchining kuchi katta bo’lsa qo’zg’alish o’rniga xaddan tashqari tormozlanish yuzaga keladi. Bunday hayvonlar dushman bilan urushganda qochadi, o’ljasini quvganda tez to’xtaydi. Melanxolik tipidagi odamlarning eng

ko’zga ko’ringan jihati bu “irodani bo’shligi” yoki irodasizligi xisoblanadi. Ular boshqalarni irodasiga bo’ysunadi, o’zini fikrida qat’iy turmaydi. Favqulotda holatlarda melonxoliklar sarosimaga tushib, hayotiy masalalarni yechimi yo’qday fikrlashadi. Bunday odamlar o’zlarini hayotdan chegaralab har qanday mas’uliyatdan qochishga harakat qiladilar.

Hulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, odam hayotida uchraydigan to’rtta asosiy nerv tizimi tiplari shulardan iborat. Ammo yuqorida ifodalangan sof holdagi nerv tiplarini hayotda o’rganish juda qiyin, asosan oliy nerv tizimi tiplarini oraliq shakllari mavjud bo’lib, ularda u yoki bu sifat ustunlik qiladi. Oliy nerv faoliyati tiplarini aniqlaganda ko’pchilikda ularni qandayligini baxolashga intilish uchraydi. Aslida esa bunday emas. Insonni jamiyatdagi o’rni baxosini ularni temperamenti bilan belgilab bo’lmaydi. Hayotni turli sohalarida faoliyat ko’rsatish uchun turli xil karakter talab etiladi. Masalan askarlarni jangga otlantirish uchun Chapayevda o’zini to’xtatolmaslik sifati qo’l kelgan bo’lsa turli xil diplomatik suxbatlarda yaxshi muvozanatlashgan o’ta vazmin karakter zarur bo’ladi.

#### Foydalangan adabiyotlar

- 1.Алявия О.Т., Кодиров Ш. К., Нишанова А.А. Физиология.-Т, 2018
- 2.Артур К. Гайтон., Джон Э.Холл. Медицинская физиология..-Москва, 2008
- 3.Н.А. Агаджанян., В.М. Смирнов. Нормал физиология. "Дарлик".-2009.